

TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI

YUZ-JAG' KASALLIKLARI VA JAROHATLARI.

415.MIRAZIMOV NABIXON

ЮЗ ЮМШОК

ТУКИМАЛАРИ

ҚУРОЛЛАРДАН

ЖАРОХАТЛАНИШ

ВА ҚУРОЛСИЗ

ЖАРОХАТ КИЁСИЙ

ТАШХИСИ

Yuz yumshoq to'qimalari jarohatlari

Yuz-jag' jarohatlari umumiy travmatologiya fanida qabul qilingan tasnif asosida farqlanadi. Jarohatlar kelib chiqish sabablariga ko'ra quyidagi ikki toifaga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarishda yuzaga keladigan jarohatlar:

a) sanoatda; b) qishloq xo'jaligida.

2. Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan jarohatlar:

a) maishiy; b) transport; d) ko'chadagi; e) sportdagi; f) boshqalar.

Lat yeyish yumshoq to‘qimalarga to‘mtoq yuzali jism bilan zarb yetkazilganda hosil bo‘ladi. Bunda teri butunligi saqlangan bo‘lib, teri osti to‘qimalari sezilarli shikastlanadi. Teri osti qatlami va mushaklar ezilib, ulardagi mayda qon tomirlari yoriladi, **to‘qimalarga qon quyiladi, qontalash** (gematoma) yuzaga keladi. Yuz to‘qimalarida bo‘sh (g‘ovak) kletchatka ko‘p bo‘lgani uchun qontalash tez rivojlanadi va atrofga tarqaladi. Gematoma chegaralangan (bir necha santimetr) va tarqalgan (yuzning yarmini, ba‘zan bo‘yin va ko‘krak sohasini egallaydigan) bo‘ladi. Gematoma hajmi bir necha omillarga, jumladan, yorilgan qon tomirining turi (arteriya yoki vena), diametri, tomir ichidagi bosimga, jarohatning kengligi, qon ivish tizimining holati hamda atrofdagi to‘qimalar (kletchatka, mushak, fassiya va boshqalar)ning zichligi va o‘lchamiga bog‘liq bo‘ladi. Yorilgan tomirdan qon ketishi tomir ichi bosimi va atrof to‘qimalardagi tashqi bosim tenglashmaguncha davom etadi.

Yuz o‘rta qismi jarohatlarida shish va qontalash pastki qovoq kletchatkasiga, konyunktivaga, lab va og‘iz shilliq pardasiga ham tarqaladi. Jarohatlanishdan so‘ng qontalash teriga ko‘kimtir-qizil yoki ko‘kimtir tus beradi (1-rasm).

Jarohat yaralari — teri va shilliq parda barcha qatlamlari butunligining mexanik ta'sir ostida buzilishidir. Yaralar **yuza va chuqur** bo'lishi mumkin. Teri, shilliq parda, teri osti kletchatkasi butunligiga putur yetsa, **yuza yara** hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan to'qimalardan tashqari, mushaklar, yirik qon tomirlari va nerv tolalari, bezlar ham shikastlansa, **chuqur yara** deb ataladi. Yaralar og'iz, burun va burun yon bo'shliqlariga, orbitaga **tutashuvchi va tutashmaydigan** bo'lishi mumkin.

Yara kelib chiqish sabablariga ko'ra: urilgan, yirtilgan, kesilgan, sanchilgan, otilgan, chopilgan, tishlangan, ezilgan, skalplangan, operatsion yaralarga bo'linadi.

Urilgan yara yuzasi kichik, to'rtmtoq, qattiq jism bilan suyaklarga yaqin bo'lgan sohalarga qattiq zarb bilan urilganda hosil bo'ladi. Yaraning chetlari notekis, terisi qizargan bo'lib, dastlabki davrda qonab turadi. Atrof to'rtqimalarda qontalash kuzatiladi. Mimika mushaklari o'zi yorilganida, mushak bo'laklari qisqarishi tufayli yara chetlari bir-biridan qochib, kengaygan bo'ladi. Zarb lunj, yuqori va pastki lablarga to'g'ri kelsa, tishlar, og'iz shilliq pardasi jarohatlanadi. Natijada, og'iz bo'shlig'i mikroflorasi yaraga tushadi. Urilgan yaralarda og'riq darajasi va davomiyligi kesilgan yaralardagidan kuchli bo'ladi. Urilgan yaralar ko'p hollarda suyaklar sinishi bilan birgalikda uchraydi.

Yirtilgan yara to'rtqimaning haddan tashqari tortilishi, cho'zilishi natijasida yuzaga keladi. Yara chetlari noto'g'ri shaklda bo'lib, ba'zan qonab turadi. Gohida yara chuqur bo'lib, bo'shliqlarga davom etishi, kuchli og'riq kuzatilishi mumkin. Ayrim hollarda yara bitishi jarayonida uning chetlari nekrozga uchrashi ham mumkin.

Yuz yumshoq to'rtqimalarini o'tkir predmet (pichoq, shisha, plastik, temir, tunuka bo'laklari, o'tkir qirrali asboblari, ustara) kesishi natijasida hosil bo'lgan jarohatlar **kesilgan yara** deyiladi

Sanchilgan yara o'tkir, uzun (pichoq, mix, changal, sim, nina va shu kabi) predmetlar to'qimalarga sanchilganda yuzaga keladi.

Odatda, bunday yaraning kirish qismi kichik (tor), o'zi turli chuqurlikda bo'ladi. Agar yara bo'shliqlarga o'tib borsa, uning kirish va chiqish teshiklari yoki darvozasi bo'ladi. Sanchilgan yara chetlari, odatda, bir-biridan uzoqlashmaydi, ammo yara ichida gematoma hosil bo'lishi mumkin. Katta qon tomirlari (tashqi uyqu arteriyasi va uning tarmoqlari) shikastlangan bo'lsa, yaradan ko'p qon ketishi kuzatiladi. Agarda yara og'iz-halqum yoki traxeyaga tutashsa, aspiratsion asfiksiya yuzaga kelish xavfi tug'iladi.

Sanchilgan yara o'tkir, uzun (pichoq, mix, changal, sim, nina va shu kabi) predmetlar to'qimalarga sanchilganda yuzaga keladi.

Odatda, bunday yaraning kirish qismi kichik (tor), o'zi turli chuqurlikda bo'ladi. Agar yara bo'shliqlarga o'tib borsa, uning kirish va chiqish teshiklari yoki darvozasi bo'ladi. Sanchilgan yara chetlari, odatda, bir-biridan uzoqlashmaydi, ammo yara ichida gematoma hosil bo'lishi mumkin. Katta qon tomirlari (tashqi uyqu arteriyasi va uning tarmoqlari) shikastlangan bo'lsa, yaradan ko'p qon ketishi kuzatiladi. Agarda yara og'iz-halqum yoki traxeyaga tutashsa, aspiratsion asfiksiya yuzaga kelish xavfi tug'iladi.

Chopilgan yara. Bunday yara o'tkir, og'ir predmet to'qimalarga zarb bilan urilganda yuzaga keladi. Kesilgan jarohatdan farqli o'laroq, chopilgan yaraning chetlari jiddiy shikastlangan bo'ladi. Aksariyat hollarda suyak ham chopilib, ham sinishi va bo'laklar og'iz, burun, ko'z, kalla yuqori jag' bo'shliqlariga tushishi bilan kechadi. Buning natijasida yarada infeksiyalanish jarayoni rivojlanishi va og'ir asoratlarning xavfi ortadi.

Jarohatga birlamchi ishlov berilayotganda yarada sinchkovlik bilan taftish o'tkazib, mayda suyak bo'laklarini topib, olib tashlash, aseptika va antiseptika qoidalariga qat'iy rioya qilish, shuningdek, ishlov o'tkazish va asoratlarning oldini olish zarur.

Tishlangan yara barcha turdagi hayvon, qush yoki odam tomonidan tishlash natijasida yuzaga keladi. Yaraning chetlari notekis, ezilgan bo‘lib, infeksiyalangan jarohat hisoblanadi. Odatda, burun, quloq, lab, lunj, qosh shikastlanadi (3-rasm).

Tishlangan yaraning asosiy xususiyati uning tishlagan hayvon, qush yoki odamning og‘iz bo‘shlig‘idagi mikroflora bilan ifloslanishidir. Yovvoyi yoki uy hayvonlari, ayniqsa, it tishlaganda jarohatga quturish virusi tushishi mumkin. Shuning uchun tishlangan jarohat olgan bemorlar quturishga qarshi emlanishi shart. Gohida tishlangan jarohatdan to‘qima uzib olingan bo‘lishi va katta kemtik mavjudligi kuzatiladi. Yara chetlari notekis, ezilgan bo‘lib, ikkilamchi infeksiya rivojlanishi oqibatida nekrozga uchrashi mumkin.

Ezilgan (majaqlangan) yara. Odatda, qattiq zarb yoki og'ir jism ostida, siqilib qolish natijasida to'qimalar ham eziladi, ham titiladi. Bunday jarohat ko'proq portlash natijasida uchraydi.

Yumshoq to'qimalar (so'lak bezlari, ko'z olmasi, kekirdak-traxeya, til, tishlar, yirik qon tomirlari va nerv tolalari) bilan bir qatorda yuz suyaklari ham jarohatlanadi.

Skalplangan jarohat — yumshoq to'qimalarning suyakdan to'liq ajralishidir. Odatda, bunday yara yuz skeletining bo'rtib chiqqan (burun, peshona, yonoq, dahan va boshqa shu kabi) sohalarida uchraydi. Bunday yaralar atrofdagi yot moddalar bilan ifloslanadi.

ЎҚ ОТАР ҚУРОЛЛАР ТУРИГА КЎРА

Жанговор қурол

Спорт қурол

Ов қурол

Ясама (кўлда ясалган) қуролларга

Стволига кўра:

узун ва калта стволли қуролларга бўлинади.

Стволнинг ички юзасига кўра силлик (ов қуроллари) ва бурама ўйиқли (милтиқлар) стволларга бўлинади



ҚЎШИМЧА ОМИЛЛАР


Ўқ отилганда порох бутунлай ёниб парчаланишга улгурмайди. Қисқа вақт ичида кичик бўшлиқда катта босим (3000 атм.гача, ундан ҳам кўп) хосил бўлиши натижасида учидаги снарядни учириб юборади. Ўқ билан бирга ёнмай қолган порох, ёниш натижасида хосил бўлган газлар, қурум, ёғ томчилари, металл зарралари ҳам учади. Келтирилган ушбу омиллар **қўшимча омиллар** деб аталади. Яқин масофадан ва тақаб отилганда қурум кийимларда, яра каналида учрайди. Бундан ташқари узоқ масофадан отилганда қурум ўзининг жадалсизлиги ва нурсимон кўринишда бўлиши билан фарқланади. Бу **Виноградов** белгиси дейилади.

ОТИШ МАСОФАСИГА КЎРА **3** ТА ГУРУХГА АЖРАТИЛАДИ.

- 1. Тақаб (тираб) отиш**
- 2. Яқин масофадан отиш**
- 3. Узоқ масофадан отиш**

ТАҚАБ ОТИШ

Тақаб отиш 3 хил кўринишда тўлик, тўликсиз ва бурчак хосил қилиб тақаб отишларга бўлинади. Тақаб отилганда ўқ билан қўшимча омиллар биргаликда яра канали ичига ўтиб кетади. Ташқарида ҳеч нарса йўқ, хаммаси ичкарида. Қурум 2-5 см ичкарига кириб боради. Ёниш натижасида ҳосил бўлган газлар тери қаватини ажратиб, юқорига ажратади ва куч билан стволнинг учига уради. Агар ствол терида герметик тиралса бундай холларда кириш тешиги атрофида ствол учига мос равишда из қолади. Бу ШТАНЦ ТАМҒА дейилади.



ЯҚИН МАСОФАДАН ОТИШ.

Яқин масофадан отиш. ўрта ҳисобда 1метр масофадан отилган яқин масофадан отиш тушунилади. Қўшимча омиллар ўрта ҳисоб билан 1 метргача бўлган масофада ўз таъсирини кўрсатади.

Узоқ масофадан отиш. Ушбу масофадан отилганда ўқ ярасининг кириш тешигида қўшимча омиллар одатка кузатилмайди (аксарият ҳолларда 1-1.5 метрни ташкил этади) Тери қатламларида айлана ёки овал шаклида тўқималар тешилиб жароҳат ичига кириб борар экан, бу жойда тўқиманинг бўлмаслиги (**Райский белгиси**) кузатилади


**Н.И. ПИРОГОВ 1849 йилда КИРИШ
ТЕШИГИНИ, 1865 йилда ЧИҚИШ
ТЕШИГИНИ ТАРИФЛАБ БЕРДИ.**

	№	КИРИШ ТЕШИГИ	ЧИҚИШ ТЕШИГИ
	1	Думалоқ, овал шаклида	Тўғри чизиқли, ойсимон, бурчаксимон, юлдузсимон ва ромбсимон шаклларда
	2	Тўқима деффекти кўпинча мавжуд	Тўқима деффектикамдан кам холларда мавжуд
	3	Қўшимча омиллар бор	Аксарият холларда йўқ
	4	Яра четлари нисбатан текис, ичкарига қайрилган	Яра четлари нотекис, ташқарига қайрилган
	5	Жарохат ўлчами кичик	Жарохат ўлчами катта
	6	Жарохат четлари бир бири билан бирикмайди	Жарохат четлари бир бири билан яхши бирикади.

СОЧМА ЎҚ

Сочма ўқ ов милтиқларидан отилганда 1-1.5 метргача хамма питралар бирга учади. Бу масофадан ошса питралар ёйила бошлайди. Бир метргача масофадан отилса кириш тешиги битта бўлиб кейин яра канали ичида кўпаяди. 3 метр масофадан отилса диаметр 10-25 смни, 25 метр масофадан отилса 60-90 смни ташкил этади.

СОЧМА ЎҚ



ЯРА ЎРАСИ-

Яра ўраси- ўқнинг танага ўтган йўлига айтилади. Одатда яра ўраси ўқ отилган йўналишга мос келади. Кириш тешиги ва чиқиш тешиги тўғри бурчак остида жойлашади. Агар ўқ ўз йўлида суякка дуч келса йўналишини ўзгартириши мумкин. Агар ўқнинг кинетик қуввати яранинг чиқиш тешигига чуққунча сарфланса ўқ танада қолиб кетади. Бу **Кўр яра** дейилади. Бунда кириш тешиги ва яра канали тавофуқ қилинади.

ЯРА ЁРАСИ-




Рис. 3.4. Выходное отверстие при пулевом ранении современными поражающими средствами.

ЎҚ ОТИШ ҚУРОЛИНИ МУКАММАЛАШИШИ УЛАР ЕТКАЗАДИГАН ЖАРОХАТЛА

Ўқ отиш қуролини мукаммалашиси улар етказадиган жарохатларнинг оддийдан мураккаб турларигача бўлишига сабаб бўлади. Юзнинг анатомо-топографик тузилиши – унинг бош мия қутисига, қўз, ЛОР органларига яқин жойлашганлиги, юз жағ соҳаси жанговар жарохатларни клиник кўриниши, кечиши ва даволанишини мураккаблашувига олиб келади. Ўқ отиш қуролининг таъсир кучи бир қатор омилларга боғлиқ бўлиб, улар ичида асосий ўринни жарохатловчи элементи ўқнинг баллистикасидир.

ЎҚ ОТИШ ҚУРОЛИНИ МУКАММАЛАШИШИ УЛАР ЕТКАЗАДИГАН ЖАРОХАТЛАР

Ўқнинг баллистик тавсифлари ичида ўқнинг тезлиги ва унинг хаводаги ва одам танасига теккандаги турғунлиги асосий ўринни эгаллайди. Ўқ тезлиги ўқнинг кинетик энергиясини ва урилиш кучини аниқлайди. Макаров пистолетининг ўқини бошлангич тезлиги 350 м/с бўлса, Калашников афтоматининг ўқини эса 900 м/с (бу эса товушнинг тезлигидан ортиқ). Ўқ отиш қуролидан етказилган жароҳат шаклланиши ва унга снаряднинг таъсири А. М. Максименко ва бошқа муаллифларнинг фикрига иккинчи босқичда ўтади: биринчиси – аъзонинг ва атроф тўқималарнинг снаряд ва хаводаги зарба тўлқинининг таъсирида зарарланиши, бу жараён 0. 0001-0. 001 сек. ичида ўтади.

**Г. М. ИВАЩЕНКО ЗАРБА ТЎЛҚИНИНИНГ ЮЗ
ТЎҚИМАЛАРИГА ЗАРАР КЕЛТИРИШИНИ 5
ТА ДАРАЖАГА БЎЛАДИ.**

Биринчи даража –
тўқималардаги қон талашиши
ва қизариш (гиперимия).

Иккинчи даража –
пуфакларни ҳосил бўлиши.

Учинчи даража – терини
тирналиши ва терининг шох
қаватини зарарланиши.

Туртинчи даража – юз юмшоқ
тўқималарини зарарланиши в
атравматик ампутация.

Бешинчи даража – юз скелети
суякларининг зарарланиши
ва травматик ампутацияси.



ЎҚ ОТИШ ҚУРОЛИДАН ЕТКАЗИЛГАН ЖАРОХАТ

Ўқ отиш қуролидан етказилган жароҳатнинг уч қават зарарланиши ажратилади: жароҳат канали, бирламчи травматик некроз ва тўқималарнинг молекуляр чайқалиши.

Жароҳат каналида қуйилган қон қуйқаси, снаряд ҳаракати билан ўз изидан тортиб кетган ёд жисмлар (дарахт қириндиси, тош бўлаклари кийим парчалари ва б.) учрайди.

Ўқ отиш қуролидан етказилган жароҳатнинг уч қават зарарланиши ажратилади: жароҳат канали, бирламчи травматик некроз ва тўқималарнинг молекуляр чайқалиши.

Жароҳат каналида қуйилган қон қуйқаси, снаряд ҳаракати билан ўз изидан тортиб кетган ёд жисмлар (дарахт қириндиси, тош бўлаклари кийим парчалари ва б.)

ТЎҶИМАЛАРНИНГ МОЛЕКУЛЯР ЧАЙҚАЛИШ ҚАВАТИ

Тўқималарнинг молекуляр чайқалиш қавати снаряд ҳосил қилган каналдан ичкарида жойлашган бўлиб, у инфекциядан холи ҳисобланади. Бу қаватнинг қалинлиги шу тўқималарнинг эластиклиги ва эзилувчанлигига боғлиқдир. Молекуляр чайқалиш қаватида тўқималарнинг некрози кузатилмайди, лекин яшаб кетиш кўрсаткичлари пасайган ҳисобланади. Бу қаватда жароҳат етган вақтдан бошлаб тўқималар ичида мураккаб жараёнлар бошланади: регионал ишемия, иротеониз ва бошқалар. Шу жараёнлар таъсирида иккиламчи некроз қавати пайдо бўлади.

ЮЗНИНГ ЮМШОҚ ВА СУЯК ТЎҚИМАЛАРИНИНГ ЖАНГОВАР ЖАРОХАТЛАРИ ҚУЙИДАГИ УЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРГА ЭГА:

Оғиз олди ва лаб тўқималарида капилляр тармоғининг кучли ривожланганлиги ва сийрак тери ости ва шиллиқ ости ёғ қавати борлиги ҳисобига бу соҳанинг жарохати шу захотиёк тарқалган шиш ривожланади

Жарохатдан кейинги нуқсон хакикий ва ёлгон бўлиши мумкин. Хакикийсида Н. И. Пирогов айтгандек «осложнения потерий существа» тўқималарда аниқ етишмовчилик бўлади. Лаб тўқималари кўпроқ юқори лаб тукиалари жарохатланганда айлана мушакларнинг қисқариши туфайли нуқсон ҳосил бўлади. Шунинг учун ҳам бундай нуқсонлар ёлгон нуқсон деб номланади

Пастки лаб ва оғиз бурчаги жарохатланганда доимий сўлак оқиши кузатилади ва бу жарохат соҳасида терининг илвиллашига олиб келади (мацерация). Терининг мацерацияси агарда пастки лабда чин нуқсон бўлса кучаяди.

ЮЗНИНГ ЮМШОҚ ВА СУЯК ТЎҚИМАЛАРИНИНГ ЖАНГОВАР ЖАРОХАТЛАРИ ҚУЙИДАГИ УЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРГА ЭГА:

Огизнинг айланма мушагини жароҳатланиши

Огизнинг айланма мушагини жароҳатланиши

Юз ўрта қисмининг жароҳатларида юз нервининг жароҳати шу захотиёк аникланса уч шохли нервнинг жароҳатини аникланиши қийиндир.

юз-жаг сохасидан жароҳатланганларнинг деярли барчасида юзаки сезувчанликлар (хароратни, оғриқни ва тактил) пасайиши, айрим холларда эса йўқ бўлиб кетишини аниклаганлар.